

BITIRUVCHILARIMIZ YUKSAK ISHONCHNI ALBATTA OQLAYDILAR



Davlatimiz rahbarining ilk bora bitiruvchilarga yo'llagan tabrigi tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu yuksak e'tibordan nafaqat, bitiruvchilarimiz, balki ularning ota-onalari va biz ustozlar ham bag'oyat mamnun bo'ldik.

Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidor va iste'dodlarini yuzaga chiqarish maqsadida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – mактаб оstonasidan boshlanadi", degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga kirishilgani tahsinga loyiq.

Davlat rahbari o'z tabrigi orqali mamlakatimiz yoshlariga murojaat qilib, "Sizlarning hayotda o'z munosib o'rningizni topishingiz uchun davlatimiz va jamiyatimiz bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etadi" deya yuksak umid va ishonch bildirdilar. Bunda butun bir millatimizning umid va ishonchi mujassamdir.

Bugun tumanimizning barcha maktablarida "So'nggi qo'ng'iroq" chalindi. Joriy yilda tumanimizdagи maktablarni 2551 nafar o'quvchi bitiryapti.

Albatta, ushbu kun barcha bitruvchilar uchun eng unutulmas va eng qadrli kun bo'lishi shubhasiz. Ular 11 yillik qadrdon ustozlari, jonajon maktabi bilan xayrlashib, hayotning katta, yanada mas'uliyatli оstonasiga qadam qo'ymoqdalar.

Mustaqil hayotga ilk bora qadamlarini tashlayotgan bugungi bitruvchilar Davlatimiz rahbarining yuksak ishonchini albatta oqlaydi deb ishonch bildiramiz.

M.KATTABEKOV,

43-umumta'lim maktabi direktori.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2021-05-25 22:44:05